

## AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHNING IQTISODIY MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI

*Fazilat Kidjayeva Abdullayevna*

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aholini ijtimoiy himoya qilishning iqtisodiy mexanizmining nazariy asoslari, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarining muhim kafolati sanalgan ijtimoiy muhofaza tizimining nazariy, ilmiy jihatlari to‘g‘risida to‘liq bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy himoya qilish, iqtisodiy mexanizmlar, ijtimoiy infratuzilmalar, bozor mexanizmi, demokratik islohotlar.

### **Kirish:**

Ma’lumki, oxirgi vaqtlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb etish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga e’tibor qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy qilish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Davlatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar fuqarolar turmush tarzining yanada yaxshilanishida, xalq hayotining sifat ko‘lami yuqori darajada tashkil qilinishida hamda huquqiy jihatdan sog‘lom muhit rivojlanishida asosiy rol o‘ynamoqda. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning milliy iqtisodiyotimizni barqarorlashtirishga, huquqiy mukammal qonunchilik tizimi yaratilishiga, ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirishga yo‘naltirilayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan yaxshi kutib olinmoqda.

O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohatlar dasturidagi uzluksiz ustuvor yo‘nalishlardan biriga, ya’ni islohotlarning barcha bosqichlarida ustuvor sanaladigan vazifalar orasiga kiradi. Davlatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishda mamlakat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya- siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lining yetakchi tamoyillaridan biri sanaladi.

Respublika Prezidentining "Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoniga ko‘ra, voyaga yetmagan farzandlari bo‘lgan ko‘p bolali oilalar, kam pensiya olayotganlarning oilalari,

nogironlarning oilalari, ishsizlar va boquvchisini yo‘qotganlarning oilalari, yolg‘iz pensionerlar va kam daromad olayotgan muhtoj oilalarga moddiy yordam berilmoqda.

"O‘zbekiston Respublikasi aholisini 2010-yilgacha bo‘lgan davrga belgilangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi“ ishlab chiqilgan. Unda Respublikada mavjud bo‘lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta‘minoti, bolalarga nafaqa to‘lash, yolg‘iz kekssalarga xizmat ko‘rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan to‘liq ta‘minlash hamda tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish amalga oshirilishi belgilangan.

### **Natijalar:**

Aholini kam ta‘minlangan va ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash konstitutsion normalar, shuningdek, sohaviy qonunchilik yordamida tartibga solinishi sohaning izchil takomillanishi uchun qulay shart-sharoitlarni berish imkonini yaratmoqda. Bu esa soha doirasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan faoliyatlarning samaradorligi yanada oshishiga xizmat qilyapti. Davlatimizda aholini ijtimoiy himoyalash va aholi farovonligi barqarorligini ta‘minlash, transport-kommunikatsiya ijtimoiy infratuzilmalarini barpo qilish, ekologik sharoiti noqulay bo‘lgan mintaqalarni qo‘llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy himoya qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida paydo bo‘lmoqda.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish nafaqat o‘zining dolzarbliligi bilan, balki huquqiy va tarixiylik xususiyatlari bilan ham xarakterli sanaladi. Aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish qadimiy ahamiyat kasb etganligi uchun bu masala jahon hamjamiyatining chuqur va puxta izlanishlar talab qiladigan muammolaridan biriga aylangan. Jismoniy nuqsoni bo‘lgan shaxslar yoki moddiy yordamga muhtoj aholining kam ta‘minlangan qatlamini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash har bir xalqning o‘z ijtimoiy muhiti hamda mamlakatlar tarixiy-huquqiy shakllanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va turlicha talqin etilgan. Sharqda, xususan, O‘rta Osiyo hududlarida bu masalaga qadimdan milliy qadriyat sifatida qarab kelishgan.

### **Muhokama:**

Davlatimizda ijtimoiy himoyaning huquqiy sharoiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o‘z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Keng miqyosda yangi ish joylari yaratilishi aholini ish bilan ta‘minlash ishsizlik masalalarini hal qilmoqda. Bunda, ayniqsa, kichik va o‘rta biznesni takomillashtirish qo‘l kelmoqda.

Tovarlar sifati, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarida amalga oshirilayotgan tadbir-choralar iste‘molchilar himoyasini rivojlantirib, aholi manfaatlarini ta‘minlamoqda. Inflyasiyaning oldini olish, so‘mning xarid kuchini saqlash, biznes-tijorat ustidan

davlatning maromiy nazoratini oʻrnatish, marketing, savdo, reklama kabilarni tartiblashtirish ijtimoiy himoyani takomillashtirmoqda. Bozor munosabatlariga oʻtish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh etish mobaynida aholini yalpi ijtimoiy himoya qilish tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini, ayniqsa, uning nochor guruxlarini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimi barpo qilindi. Bu tizimda mahalla markaziy oʻrinda turadi.

### **Xulosa:**

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani mamlakat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bogʻliqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi insonlarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tugʻilgandan nogironlarga, koʻp bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining oʻsishiga paydo boʻladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan eʼtibor qaratadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abulkasimov H., Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. - T.: “Iqtisod-moliya”, 2014.
2. Hamroev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni taʼminlash mexanizmlari. Toshkent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2004.
3. Abduraxmonov Q. X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy oʻquv yurtlari uchun oʻquv qoʻl. - T.: Oʻzbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, TDIU, 2004.
4. Ijtimoiy ish va ijtimoiy taʼminotga kirish: Darslik / A.V. Vaxabov, SH.SH. Zaxidova, B.B. Baxtiyorov, D.SH. Odinayev, J.N. Fayzullayev; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018.